

## Talabalarni Ahloqiy Tarbiyalashda Milliy Qadriyatlardan Foydalanish –Pedagogik Muammo Sifatida

*Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarni ahloqiy tarbiyalashda ahloqiy tarbiya, milliy qadriyatlardan foydalanishning o'rni, xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga, axloq-odobga, komil insonni tarbiyalashga doir fikrlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat jamiyat, tarbiya, talaba, millat, xalq, ahloq, odob, umuminsoniy, pedagogik, ma'naviy, o'zbek, mutafakkir, milliy, yoshlar, shaxs, imkoniyat.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq umuminsoniy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi-o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviyahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan. Shaxsni xususan, yoshlarni ijtimoiy lashuvida, ahloqiy shakllantirishga qaratilgandir. Shuning uchun ham Ta'lim to'g'risida<sup>1</sup>gi Qonun Kadrlar tayyorlash Milliy dasturilda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasida umumiyo'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida<sup>1</sup>gi Qarorida milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yosh shaxsida yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni tarbiyalashni, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoitlar yaratilmoqda. Ularning rivojlanishiga ehtibor berilmoqda.

Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon butun jahon tan olmoqda[10.b.3]-deb ta'kidlagan edilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda mustaqil O'zbekistonni jahon hamjamiyatidagi davlatlarning tan olishi, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini tiklanishiga va imkoniyatlarining tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasida to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etmoqda. Jahon madaniyatining yanada chuqurroq bilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratilmoqda. Shuning uchun ham xalqimiz orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan sadoqat, hurmat kundan kunga rivojlanib, mustaqil O'zbekistonning ma'naviy-ahloqiy negizlarini mustahkamlashning kuch qudrati manbaiga aylanib bormoqda. Milliy qadriyatlar asosida xalqimizdaadolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklari rivojlantirilmoqda. Milliy an'analarni, urf-odatlarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har kishini kamol to'tirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratish O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadiga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda O'zbekistonning istiqlolli va istiqbolini, buyuk kelajagini umumjahon tsivilizatsiyasiga qo'shayotgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda, tan olmoqda. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston mustaqilligi qudratli milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga, rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan

<sup>1</sup> Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasи o'qituvchisi



boshlanadi"- deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Talabalarni ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga sharqona g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiqu etishga zamin yaratiladi. Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, oliv ta'lim muassasalarida talabalarni axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Ma'naviy qadriyatlar-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rabi olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islam ham jamiyat davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma - yuz turibti. Islom dinini siyosiylashtirish va musulmon yoshlarini radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni ota jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, globallashuv jarayonlari tufayli inson faoliyatida uchrayotgan salbiy amallarning oldini olish uchun uni milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va umuminsoniy madaniyat yutuqlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir." Bizga malumki, umuminsoniy qadriyatlarining ilk kurtaklari Sharqda shakllanib, diniy qadriyatlar inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida e,,zozlanib kelmoqda. Sharq qadriyatlar o'z – o'zanida rivoj topib borishi bilan bir qatorda insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi, hamda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Sharqona madaniyat xalqni ma'naviy ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlashda asosiy vazifasini o'tab kelmoqda. Tarixning guvohlik berishicha, o'zbek xalqi eng qadimiy xalqlardan biri bo,,lib, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rnini egallab kelmoqda. Chunki jahon miqyosida o'zining aql - idroki, tafakkur qilish qobiliyati umuminsoniy qadriyatlar talabiga javob beradigan buyuk alloma mutaffakkirlarni yetkazib berdi. O'zbek xalqi milliy qadriyatlarini xarakterlaydigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo`stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat hurmat ko`rsatish, mulohazalilik, sharm- xayolilik, bolajonlilik, hamdardlik, mahalladoshlik, halollik va boshqalar. Bu va shunga o`xshash o'zbek milliy qadriyatlar Yangi O'zbekistonda yashayotgan har bir kishining ko'nglida g'ururlanish hissiyotini paydo qiladi va bu bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bugungi adolatli davlat bunyod etilayotgan davrda o'tmish ajdodlarimizning tajribalarini o'rganish, ularning ibratli ishlaridan ijobiy saboq olish, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha dunyoqarashni va milliy mafkurani shakllantirish, harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari tamoyiliga asoslangan barqaror vazifalarni belgilaydi.

Jahon ma'naviy madaniyatining xilma-xil jihatlari uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib bu davrda yashab ijod qilgan sharq mutaffakkirlari Abu Nasr Farobi, al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi allomalar, Alisher Navoiy, Xusayn Bayqaro, Zahiriddin Muxammad Bobur kabi donishmand mutaffakkirlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarining chuqur ildizlari sifatida xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashda va rivojlantirishda muhim o'rin tutgan va tutib kelmoqda. Shunday ekan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qadimiy va tarixiy bo'lib, uning mazmunida jinsidan qathiylar, o'zga millat xalqlariga hurmat bilan qarash dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, insoniyatning tinchligi va totuvligini ta'minlash, har bir millat xalqlarining o'z huquqlarini o'zi belgilash, o'ziga mustaqil bo'lib, o'ziga xos davlat tuzib yashash, o'z tili, dini, urf-odatlar o'zitga xos milliy qadriyatlar bilan bo'lish natijasida inson kamolotiga erishish, shaxsni ahloqiy shakllantirish kabi yo'nalishlar muhim o'rin egallagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish negizida turli tadbirlarni tashkil etish, talabalarni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit yaratish, ulardagagi milliy tarbiyaga oid his-tuyg'ularni o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishda suhbat, hikoya, savol-javob va qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalanish lozim. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar xalqimizning milliy iftixori hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmunli va yo'naliishi umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida belgilangan. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat,milliy ma'sulyat tuyg'usini anglaydigan talabalarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatni mustaqil va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar / Izohli ko'rgazmali vositalar to'plami. – Toshkent: YAngi asr avlod, 2001. –78 b.
3. Novikova L.N. Vospitanie kak pedagogicheskaya kategoriya // – M.: Pedagogika. – 2000. – №6. – S. 28.
4. Obuxov A.S. Issledovatelskaya deyatelnost kak vozmojnyy put vxojeniya podrostka v prostranstvo kultury // SHkolnye texnologii. – M., 2001. –№ 5. –S. 2.
5. Safarova R.G. SHaxsn shakllantirish omillari // Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. – Toshkent: 2001. – № 3-4.
6. Qur'onov M.Q., Qurbaniyozova Z.Q. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: RTM, 2003, – 48 b.
7. Qur'onov M. O'zbekiston umumta'lif maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. ... diss. – Toshkent: 1998. – 287 b.
8. Akbaralievna M. D. The Role of Reading in Personal Development //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 138-141.
9. Муминова Д. А. THE MAIN STEPS AND MAINTENANCE OF IMPROVING HABITS OF READING ON THE ELEMENTARY SCHOOL FORMS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 5. – С. 407-414.
10. МУМИНОВА Д. THE BOOK IS THE CULTURAL AND SPIRITUAL HERITAGE OF THE NATION //O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/10] ISSN 2181-7324.

